

Vatanni himoya qilish – fuqarolik burchimiz

// 15.01.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/vatanni-himoya-qilish-fuqarolik-burchimiz>



"O'zkimyosanoat" Ajda "Vatanni himoya qilish – fuqarolik burchimiz" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi



14-yanvar - "Vatan himoyachilari kuni" munosabati bilan o'tkazilgan mazkur tadbirda tizim korxonalarini xodimlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi, polkovnik, dotsent Dilshod Botirov, akademiyaning Harbiy psixologiya va pedagogika kafedrasini harbiy pedagogika sikli boshlig'i, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, polkovnik Komiljon Nosirov, akademiya tinglovchisi, mayor Nuriddin Samadov, O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Ra'no Yarasheva ishtirok etishdi.



Harbiylar mehnat faoliyatlaridagi tajribalari bilan o'rtoqlashishdi. Qurolli Kuchlar akademiyasi faoliyatidan videoroliklar namoyish etildi. Tizim korxonalari xodimlari ham tadbirda faol qatnashishdi, Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar ijro etildi. Korxonalarning ijodkor xodimlari o'z ijod namunalari bilan o'rtoqlashdi.



uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26

